RESEARCH AND PUBLICATIONS

MAGISTRLAR

RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI

-PEDAGOGLAR -MAGISTRLAR -TALABALAR

* ILMIY AMALIY TADQIQOTLAR
* PEDAGOGIK YONDASHUVLAR
* FAN YANGILIKLARI
* TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

|GOOGLE SCHOLAR|ZENODO|CYBERLENINKA|
|OPENAIRE|RESEARCHBIB|DOI|ISSN|

2025

WWW.READNPUB.UZ

#MAGISTRLAR

MAGISTRLAR

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

10-SON, 1-JILD OKTABR 2025 - YIL 1-QISM

WWW.READNPUB.UZ

MAGISTRLAR
2025 - OKTABR

EDITOR IN CHIEF
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
PREPARING FOR PUBLISHING
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR
ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH
NASHRGA TAYYORLOVCHI
HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

MAGISTRLAR
ILMIY-USLUBIY JURNALI

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

Azimov Jumanazar Turg'unovich
O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari Akademiyasi dosenti. Fizika-matematika fanlari falsafa doktori. PhD.

Dr. Israilov Mamarakhim
Doctor of Philosophy (Ph.d) Technics., Associate professor of the Department of "Natural Sciences" of the Academy of Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Maksudova Firuza Xurshidovna
Toshkent farmatsevtika institutining «Dori vositalarining sanoat texnologiyasi» kafedrasi mudiri

Kojikbaeva Ziyada Adilbaevna
Qoraqalpoq davlat universiteti Jurnalistika kafedrasi dotsenti

Allaberganova Gulchehra Masharipovna
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Umumiy fizika" kafedrasi dotsenti

Shamshiyeva Hulkar
Toshkent shahri Olmazor tumani Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika o'qituvchisi

Soliyev Hayitboy Mirzadavlatovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsenti

Ustaboyev Abdullo Raximjonovich
Namangan muxandislik-qurilish instituti Transport fakulteti Transport logistikasi kafedrasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, katta o'qituvchi

Matyakubova Yulduzxon Amanbayevna
Urganch davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasi, qishloq ho'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Mirzabdullaeva Gulnora Muxammadjon qizi
Namangan muhandislik-qurilish instituti menejment kafedrasi assistenti

Berdikulov Sirojjon Nasipkulovich
Academy of the Ministry of internal affairs of the Republic of Uzbekistan Social-Humanitarian professor of the Department of Sciences, Doctor of philosophy, professor

Shukhrat Batirovich Djabbarov
Ph.D. (Tech.), Department of "Wagons and wagon facilities", Tashkent State Transport University

Shokirova Havasxon Nurmamatovna
Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Baratova Maxbuba Mubinjanovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Dauletmuratova Zamira Usnatdinovna
Qoraqalpoq davlat universitetining Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasining assistent-o'qito'vchisi

Shokirova Havasxon Nurmamatovna
Farg'ona xalq ta'limi boshqarmasi Ta'lim markazi direktori

Xakimniyazov Jolmurza Xojabekovich
Qoraqalpoq Davlat Universiteti Tarix fakulteti Tarix fanlari nomzodi docent

Qodirov Ziyoidin Mamadalievich
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi

Alimjon Tojiev Mo'ydinovich
Andijon davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Tojiboeva Gulxumor Raxmonjonovna
Andijon davlat universiteti umumiy psixologiya kafedrasi katta o'qituvchi

Yunusova Gulshod Nazixovna
Namangan davlat universitetining «Amaliy matematika va axborotlartexnologiyalari» kafedrasi katta o'qiituvchisi

Ergashev Bobirjon Boxodirovich
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar talimi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani

Abdugapparov Farkhod Sultonakhmadovich
PhD, Senior Lecturer, Department of Chemistry, Andijan State University, Republic of Uzbekistan.

Nabieva Saidaxon Abduvaxabovna
Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodieti va menejmenti kafedrasi dotsenti (PhD)

ZAKIROVA RUXSONA YUNUSOVNA
Toshkent farmatsevtika institutining Dori vositalarining sanoat texnologiyasi kafedrasi v/b dotsenti

Raxmatullaeva Gulnora Kutbitdinovna
TTa nevrologiya va tibbiy psixologiya kafedrasi dotsenti

Achilova Sanobar Sabirovna
Urganch davlat universiteti kimyoviy texnologiyalar fakulьteti Ozik ovkat kafedrasi dotsenti

Turakulov Ibroxim Ravshanovich
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Aniq-tabiiy va jismoniy madaniyat fakulteti Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasi v.v.b.dotsenti

Usmonalieva Risolat Umaralievna
Surxondaryo viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi" Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Sobirov Abdulxay Shukirovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat universiteti ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha prorektori

Jo'rayev Hamza Hamraqulovich
Uzbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi kafedrasi dotsenti

Erkaboy Yu. Derdibaev
Toshkent davlat agrar universiteti, Dexkonchilik va melioratsiya kafedrasi professori

Saidova Markhabo Xabibullo kizi
DOCTOR OF PHILOSOPHY (PH.D) in ECONOMICAL SCIENCES

TOPISHMOQLARNING AYRIM LISONIY XUSUSIYATLARI HAQIDA

Muhammadsodiq Shodmonov

Alfraganus universitetitalabasi

Annotatsiya

Maqola o‘zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik va sintaktik xususiyatlarini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Tahlil topishmoqlarda jumboqlikni yaratuvchi asosiy mexanizmlar sifatida metafora, antropomorfizm va antiteza san’atlaridan faol foydalanilishini ko‘rsatadi. Sintaktik jihatdan, matnlar ixcham qoliplarda tuzilib, jumboqlanayotgan predmetning turli zid xususiyatlarini ta’kidlash uchun antiteza (qarama-qarshi qo‘yish) keng qo‘llanilishi haqida ma’lumotlar beriladi.

Abstract

This article is devoted to the study of the lexical-semantic and syntactic features of Uzbek folk riddles. The analysis shows that metaphor, anthropomorphism, and antithesis are actively used as the main mechanisms for creating riddles' enigma. Syntactically, the texts are constructed in compact forms, and information is provided on the widespread use of antithesis (juxtaposition of opposites) to emphasize the various contrasting characteristics of the object being puzzled.

Kalit so‘zlar: topishmoqlar, lingvistik xususiyatlar, metafora, antiteza, obrazlilik, sintaksis, leksik-semantik, pragmatika, monopredikativ, zidlik

Keywords: Riddles, linguistic features, metaphor, antithesis, imagery, syntax, lexical-semantic, pragmatics, monopredicative, opposition.

Kirish

Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, hamma vaqt reallikka asoslanadi. Unda atrofimizdagi o‘rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Topishmoqda atrofimizdagi narsalarning badiiy-estetik tomonlari, xalqning urf-odatlari aks etadi. Unda tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni

bir-biriga taqqoslash, o‘xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi[1].

Turk olimi Ilhan Bashgo‘z “Türk Folkloruna Giriş” nomli asarida folklor namunasi bo‘lgan topishmoq, maqol kabilarga umumiy folklor haqida quyidagi fikrni beradi: Başgöz, çalışmasının girişinde “Folk-lore: Halk kültürü, halk bilimi, tarif ve çalışma alanı” başlığı altında bir bilim olarak “folklor”u tanımlamayla işe başlar. Yabancı araştırıcılarca ortaya konan sekiz adet folklor tanımını iktibas eder ve folklor ürünlerinin, “Anonim olmak, yani yaratıcısı bilinmemek”, “Sözlü olmak” ve “Geleneksel olmak” özelliklerini kültürümüze ait iki bilmece, iki atasözü, iki mani, bir türkü ve bir kadı fıkrasını örnek vererek açıklar[2].

Tarjimasi:

"Başgöz o‘z ishining kirish qismida 'Folklor: Xalq madaniyati, xalq bilimlari, ta’rifi va tadqiqot sohasi sarlavhasi ostida folklorni bir fan sifatida ta’riflashdan boshlaydi. U xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan sakkizta folklor ta’rifini keltiradi va folklor mahsulotlarining quyidagi xususiyatlarini — “Anonim bo‘lishi, ya’ni yaratuvchisining noma’lum bo‘lishi”, “'Og‘zaki bo‘lishi” va “An’anaviy bo‘lishi” — madaniyatimizga oid ikki topishmoq, ikki maqol, ikki mani, bir qo‘shiq va bir qiziqarli latifa orqali tushuntiradi."

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, topishmoqning og‘zaki va an’anaviy matn ekanligi uning til xususiyatlarini chuqur o‘ragnishni taqozo etadi. Chunki topishmoqning ta’sir kuchi, yashirin ma’noni ifodalash usuli bevosita leksik-semantik vositalar va sintaktik qurilish orqali amalga oshadi.

Filologiya fanlari doktori, dotsent Saparniyazova Muyassar topishmoqlarning leksik-semantik vositalar va sintaktik qurilishining o‘rganilishining ahamiyati to‘g‘risida quyidagilarni keltiradi: “Xalq og‘zaki ijodiga doir manbalarning har biri lisoniy jihatdan tahlil qilinganda bir-biridan ancha farq qiladi. Dostonlar tili ertaklardan, maqol va matallar tili topishmoqlar tilidan, xalq qo‘shiqlari tili ham boshqa janr til xususiyatlaridan talaygina

[1] Hamidova Muhayyoxon Boshlang‘ich ta’limda bolalar adabiyoti N.: “Usmon Nosir media” nashriyoti, 2022, B – 42-43

[2] Salahaddin Bekki Prof. Dr. İlhan Başgöz’ün Yayımlanmamış Bir Eseri [Türk Folkloruna Giriş] Üzerine folklor/edebiyat, cilt: 25, sayı: 100, 2019/4 S - 746

farqlanadi. Shu jihatdan topishmoqlar tilini o‘rganish o‘zbek tilining sof o‘ziga xos xususiyatlarini – leksik-semantik jihatlari va grammatik qurilishidagi taraqqiyot bosqichlarini belgilashda katta ahamiyat kasb etadi.”

Shu bois, ushbu maqolada o‘zbek xalq topishmoqlarining til xususiyatlarini leksik-semantik va sintaktik yondashuvlar asosida tahlil qilish, ularda majoziy ma’noni yaratuvchi asosiy mexanizmlarni ochib berish maqsad qilingan.

Xalq topishmoqlarining sintaktik xususiyatlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, u o‘zida turli gap konstruksiyalarini: sodda gap – monopredikativ konstruksiyalar, qo‘shma gap – polipredikativ konstruksiyalarni namoyon etadi. A. Nurmonov sintaktik birliklarning uch tomoni mavjudligini ta’kidlaydi: 1) Sintaktika; 2) Semantika; 3) Pragmatika. Bu talqinga ko‘ra sintaktika lisoniy birliklarning shakliy munosabatlarini, semantika belgining borliq obyekti bilan munosabatini, pragmatika – belgining so‘zlovchi bilan munosabati haqidagi ta’limotni bildiradi. Lisoniy birliklarning bu tarzdagi talqini xalq topishmoqlari gap modellari uchun aynan mos keladi Xalq topishmoqlarida sodda gap qurilishining yig‘iq holati polipredikativ xarakterda bo‘ladi. Jumboqlanayotgan predmet – gap subyekti maqomida bo‘lib, uning bir necha belgilari keltiriladi. Masalan: Keta beradi, Kela beradi, Qocha beradi, Quva beradi. (Suv). Yoki: Yalt – yalt etadi, Yamlab ketadi. (O‘t - olov). Topishmoqlarning eng xarakterli belgilaridan biri shundaki, topishmoq javobi ham aksariyat hollarda gapning grammatik qurilishi bilan aloqador bo‘ladi. Topishmoq – gap qurilishida javobning «bo‘sh o‘rni» sezilib turadi. Qiyoslang: Suv keta beradi, kela beradi, qocha beradi, quva beradi. Yoki: Olov yalt-yalt etadi, yamlab ketadi. Topishmoqlarda gapning eng kichik qurilish qolipi shaklidagi, ya’ni faqat kesimning o‘zidangina iborat gap kuzatilmaydi. Sodda gap tipidagi topishmoqlar ko‘pincha tasviriy xarakterda bo‘ladi, shu sababli, jumboqlanayotgan predmetga xos xususiyatlarni ifodalash uchun ham predikat o‘z argumentlari bilan kengayib kelishi yoki bir necha predikatlar uyushishi talab qilinadi. Ba’zan esa bu predikatlar tasdiq-inkor shaklida bo‘ladi: Eshita-di, ko‘rma-ydi. (Quloq)[3]

[3] Saparniyazova Muyassar O‘zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi T – 2005 B – 19-21

Yuqoridagi sintaktik tahlil shuni ko‘rsatadiki, topishmoqning jumboqli xarakteri uning gap qurilishida ham namoyon bo‘ladi. Bir tomondan, sodda gap qoliplari (monopredikativ) ustunlik qilsa-da, polipredikativ (ko‘p kesimli) tuzilmalar jumboqlanayotgan predmetning turli xususiyatlarini sanash orqali tasviriy va harakatlantiruvchi kuchni ta’minlaydi. Ikkinchi tomondan, subyektning nomlanmay qolishi va uning o‘rnini ko‘plab kesimlar (predikatlar) egallashi topishmoqning pragmatik funksiyasini — ya’ni tinglovchini fikrlashga va javobni topishga undash vazifasini — kuchaytiradi. Topishmoqlarning bu tarzda tuzilishi, ya'ni sintaktik ixchamlik va predikatlarning zich ulanishi bevosita ushbu janrning leksik-semantik asoslari bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, bunday sodda, ammo tasviriy gaplar faqatgina metaforik (majioziy) ma’no orqali haqiqiy mohiyatni yashira oladi.

O'zbek xalq topishmoqlarining asosiy qismini metaforaga asoslangan topishmoqlar tashkil etadi. Metafora bu - muayyan bir narsa yoki hodisaning tashqi ko'rinishi jihatidan boshqa bir narsaga o'xshashligi asosida ma'no ko'chish turi bo'lib, u topishmoqlarda tasvirdagi obrazlilikni ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan: "Atrofi chakalakzor, o'rtasi yorug' yulduz", bu topishmoqda jumboqlanayotgan narsalardan birinchisi kipriklar, ko'chim esa "chakalakzor", ikkinchi jumboq ko'z bo'lib, unga nisbatan "yorug' yulduz" ko'chimi mohirona ishlatilgan. Ya'ni "Atrofi chakalakzor" ta'rifi bilan ko'z atrofidagi kipriklar ko'zni xuddi chakalakzordek o'rab turishiga ishora qilinsa, "o'rtasi yorug' yulduz" deya, kipriklar o'rtasida chaqnab turguvchi ko'z nazarda tutiladi[4].

“Metaforalarning majoziy jihatlaridan biri bu jonlantirish san'atidir, u badiiy matnga obraz berish, hissiy va emotsional bo‘yoq berish vositalaridan biridir. Metaforani qo‘llashning bu turida inson xususiyatlari, holatlari va harakatlari jonsiz narsalarga ko‘chiriladi**.** Shu yo‘l bilan nutqning ta’sirchanligini oshirishga, qo‘shimcha ma’noning (konnotativ ma’no) paydo bo‘lishiga erishiladi:

Yodim siniqlari, qalq, ovoz beray,

[4] Mahmudova Nargiza, Xoshimova Mashxuraxon Topishmoqlarda ma’no ko‘chish turlari Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences April,2023 B – 423

Qalqdi, yuragim, chida, ber bardosh.

Qaragin titroqda — hammasi jonli,

Qara, hammasining yuzi qontalash.

Shoir bu o‘rinda harakatning o‘xshash tomonini boshqa narsaga ko‘chiradi. Masalan, u o‘zining achchiq xotiralariga "qalq" (tur, uyg‘on) deya murojaat qiladi, achchiq xotiralar qalqqanida esa yuragiga "chida, ber bardosh" deb aytadi. U xotiralarini xarakterga asoslab ko‘chiradi va ularni "yuzi qontalash" metaforalari bilan ko‘rsatadi. Insonga xos bo‘lgan qalq, chidash, bardosh berish kabi harakatni bildiruvchi so‘zlar jonsiz narsaga – yurakka nisbatan qo‘llanib, kuchli emotsionallikni yaratadi[5].”

Yuqorida keltirilgan tadqiqotda jonlantirish (antropomorfizm) she’riy matn orqali berilganini ko‘rdik. Quyida ushbu mexanizmning xalq topishmoqlari materialida qanday namoyon bo‘lishini misol namunasida ko‘rib chiqamiz:

Masalan: “Qo'li yo'q, oyog'i yo'q, eshikni ochar-yopar.” (Shamol)

Bu yerda "Qo‘l" va "oyoq" so‘zlari (inson a’zolari leksikasi) inkor shaklida berilgan bo‘lsa-da, uning o‘rnini “ochar-yopar” fe’llari egallaydi. Shamolning ob’ektiv harakati insonning maqsadli harakati orqali tasvirlanadi. Bu orqali jumboqlanayotgan predmetning xususiyatlari tinglovchiga yanada tanish, jonli obraz orqali yetkazilib, topishmoqning badiiy-estetik ta’siri kuchaytiriladi.

Metaforik ma’no yaratuvchi yana bir kuchli leksik-semantik va sintaktik vosita – bu antiteza (qarama-qarshi qo‘yish) hisoblanadi. “Antiteza – ma’no jihatida Keskin farq qiluvchi yoki qarama-qarshi bo‘lgan so‘z yoki iboralarni taqqoslashdir”[6]. Antiteza tushunchalarni yoki harakatlarni bir-biriga zidlash orqali katta kontrast yaratadi. Bu usul topishmoqning mantiqiy murakkabligini oshirish va tinglovchini obyektdagi ikki xil xususiyat haqida bir vaqtning o‘zida fikrlashga undash uchun juda zarur.

[5] Izbosarova Shahnoza Metaphors in modern uzbek literature as a methodological tool (on the example of the work of Zulfiya, O.Hajiyeva, H.Khudayberdiyeva) EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal Volume: 6 | Issue: 10 | October 2020 P - 461

[6] Usmonova Nilufar Topishmoq poetikasi Educational research in universal sciences Volume 2|Issue 12|2023 B – 308

Masalan: Otdan baland, itdan past. Javob: Egar

Egar o‘z funksiyasi jihatidan otdan balandda joylashadi (ustida o‘tiriladi), ammo yerdan olinganda itdan pastda turadi. Bu zidlik predmetning nisbiy joylashuvini ta’kidlaydi. Bunda sintaktik jihatdan teng qurilishdagi ikkita qarama-qarshi so‘z yordamida obyektga ikki xil, ammo bir-birini to‘ldiruvchi tavsif berilgan.

XULOSA

Ushbu maqolada o‘zbek xalq topishmoqlari tilining leksik-semantik va sintaktik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot topishmoq janrining majoziy mohiyati uning lisoniy qurilmasida qanday aks etishini ko‘rsatdi**.** Sintaktik jihatdan, topishmoqlar ixcham, monopredikativ qoliplarda tuzilib, ko‘plab predikatlarning uyushishi orqali tasviriy kuchga ega bo‘ladi. Subyektning yashirin qolishi esa matnning pragmatik vazifasini – tinglovchini fikrlashga undashni ta’minlaydi. Leksik-semantik jihatdan, majoziy ma’noni yaratuvchi asosiy vosita metafora bo‘lib, u antropomorfizm (jonlantirish) va antiteza (qarama-qarshi qo‘yish) kabi mexanizmlar orqali kuchaytiriladi. Antiteza zid tushunchalarni (masalan, "baland/past" yoki "tirik/o‘lik") bir predmetga nisbatan qo‘llash orqali topishmoqning mantiqiy murakkabligini va estetik ta’sirini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, topishmoqlar o‘zbek xalqining olamni obrazli idrok etish madaniyatini aks ettiruvchi, leksik-semantik va sintaktik vositalar uyg‘unlashgan noyob lisoniy manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hamidova M. Boshlang‘ich ta’limda bolalar adabiyoti. – Toshkent: “Usmon Nosir media” nashriyoti, 2022.
2. Izbosarova Sh. Metaphors in modern uzbek literature as a methodological tool (on the example of the work of Zulfiya, O.Hajiyeva, H.Khudayberdiyeva). // EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. – Volume: 6, Issue: 10. – October, 2020.
3. Mahmudova N., Xoshimova M. Topishmoqlarda ma’no ko‘chish turlari. // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – April, 2023

4. Salahaddin B. Prof. Dr. İlhan Başgöz'ün Yayımlanmamış Bir Eseri [Türk Folkloruna Giriş] Üzerine. // Folklor/Edebiyat, cilt: 25, sayı: 100, 2019/4.

5. Saparniyazova M. O‘zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – Toshkent, 2005.

6. Usmonova N. Topishmoq poetikasi. // Educational research in universal sciences. – Volume 2, Issue 12. – 2023.

O‘SMIR BOKSCHILARNING RINGDA HARAKATLANISH TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Muxtorov Abduraxim Abduxamid o‘g‘li
Alfraganus universiteti “Sport faoliyati kafedrasi”
2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Bokschilarni ringda manyovr qilishi har xil harakatlar va aldamchi harakatlar majmuasidan iborat bo’lib, ularning yordamida bokschi o’z raqibin xatoliklarga yo’l qo’yishiga, o’ylamasdan qarorlar qabul qilishga majbur qiladi va shu tufayli, qulay pozitsiyani egallash, hujumlar, qarshi hujumlarni amalga oshirish uchun ijobiy imkoniyatlar yaratishga erishadi va natijada, bu aniq zarba berishga va nishonni mo’ljalga olishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: Texnik-taktik xarakatlar, xaftalik yuklama, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, mashg’ulot va musobaqa, maxsus tayyorgarlik, musobaqa oldi tayyorgarlik.

Tadqiqotning dolzarbligi: Jahonda hozirgi vaqtda juda ham ommabop sport turiga aylanganboksda, barcha yosh guruhlari va vazn toifalaridagi bokschilarning trenirovka jarayonlarini, ularning tayyorgarliklarini turli tomonlarini baholash va nazorat qilish asosida boshqarish muammolariga katta e’tibor qaratilmoqda. Sportchilarni tayyorlashning asosiy tomonlaridan biri – bokschilarning musobaqa oldi bosqichidagi manyovr qilish texnikasini takomillashtirish hisoblanadi. Shuni ham aytish lozimki, o’smir bokschilarni tayyorlash amaliyotida manyovrli harakatlarni qo’llashga, ring bo’ylab manyovr texnikasini oshirishni hisobga olgan holda trenirovka qilish jarayonini boshqarishni tashkil qilishga bir xilda yondashish mavjud emas. Bokschilarni ringda manyovr qilishi har xil harakatlar va aldamchi harakatlar majmuasidan iborat bo’lib, ularning yordamida bokschi o’z raqibin xatoliklarga yo’l qo’yishiga, o’ylamasdan qarorlar qabul qilishga majbur qiladi va shu tufayli, qulay pozitsiyani egallash, hujumlar, qarshi hujumlarni amalga oshirish uchun ijobiy imkoniyatlar yaratishga erishadi va natijada, bu aniq zarba berishga va nishonni mo’ljalga olishga imkon beradi.

Keltirilgan muammo tadqiqotning - “O’smir bokschilarning ringda harakatlanish texnikasini takomillashtirish” mavzusini tanlashga asos bo’ldi.

Shuni ham aytish lozimki, o'smir bokschilarni tayyorlash amaliyotida manyovrli harakatlarni qo'llashga, ring bo'ylab manyovr qilish texnikasini oshirishning hisobga olgan holda trenirovka jarayonini boshqarishni tashkil qilishga bir xilda yondashish mavjud emas degan fikr paydo bo'ldi.

Tadqiqotning maqsadi: tajriba yo'li bilan o'quv-mashg'ulot jarayonida musobaqa oldi bosqichidagi o'smir bokschilarning texnik-taktik tayyorgarligida manyovrli harakatlarni qo'llash metodikasini ishlab chiqish va tekshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

1. Texnik-taktik mahoratni takomillashtirish usullarini aniqlash va o'smir bokschilarning manyovrli harakatlari texnikasi samaradorligini o'sishiga ko'maklashadigan maxsus mashqlar majmuasini taklif qilish.

2. O'quv-mashg'ulot jarayoniga situativ modellarni joriy qilishning natijaviyligini tajribada aprobatsiya qilish va isbotlash.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-metodik manbalarni (mamlakatimiz va xorijiy mualliflarning) mashg'ulot va musobaqa amaliyotining ilg'or tajribalarini tahlil qilish va umumlashtirish, o'smir bokschilarning trenirovka va musobaqa faoliyati ustidan pedagogik kuzatishlar, o'smir bokschilarning tayyorgarlik darajalarini aniqlash maqsadidagi pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika usullari.

Tadqiqotning obyekti – o'smir bokschilar tayyorgarligining musobaqa oldi bosqichidagi o'quv-mashg'ulot jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – texnik-taktik tayyorgarlikda o'smir bokschilarning musobaqa oldi bosqichida manyovrli harakatlarini qo'llash metodikasi.

Tadqiqotning tashkil qilinishi. Toshkent shahri terma jamoasining o'quv-mashg'ulot yig'inlarida o'tkazilgan dastlabki tajribada 15-16 yoshdagi 30 nafar sportchilar ishtirok etishdi. Ushbu o'smir bokschilar respublika birinchiliklarida munosib ishtirok etishgan, boks bo'yicha 1-razryadli malakaga ega bo'lishgan. Dastlabki tajriba paytida, o'smir bokschilarni texnik-taktik tayyorgarligining musobaqa oldi bosqichida ilgari ishlab chiqilgan manyovrli harakatlarni qo'llash metodikasi aprobatsiya qilindi. Mazkur metodika ijobiy natija berdi.

Ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlash uchun asosiy pedagogik tajriba Toshkent shahridagi Olimpiya va paralimpiya sport kolleji bazasida olti xafta davomida o'tkazildi.

Pedagogik tajribani o'tkazish uchun o'smir bokschilarni ikkita guruhi shakllantirildi ular, jismoniy va texnik-taktik tayyrogarliklari bo'yicha tarjibani boshlanishida farq qilmadi.

Tadqiqotlarning natijalari. Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, manyovrli harakatlar bokschilarning texnik-taktik tayyorgarligining muhim elementlarini muhim elementi hisoblanadi. Shu vaqtning o'zida, ko'rib chiqilgan ishlarda manyovr qilish bo'yicha umumiy tavsiyalar berilgan xolos, manyovr qilish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi ochib berilmagan.

Metodikani ishlab chiqish paytida biz, V.M.Romanov, G.O.Jeroyan, V.A.Oskolkov, V.I.Filimonov, V.A.Strelnikov, V.A.Gaskov kabi mutaxassislarning ishlariga asoslandik. Bundan tashqari, metodikaning mazmunini tanlash paytida L.P.Matveyev va V.N.Platonovlarning ishlarida bayon qilingan nazariy holatlar qo'llanildi.

O'smir bokschilarni texnik-taktik tayyorgarligining musobaqa oldi bosqichida manyovrli harakatlarini qo'llash metodikasi quyidagiari o'z ichiga oladi:

1.O'smir bokschilarning jismoniy va spetsifik sifatlarini rivojlanishi darajasini dastlabki nazoratini.

2.Biz tomondan ishlab chiqilgan modellar bo'yicha o'quv-mashg'ulotlar.

3.O'smir bokschilar texnik-taktik tayyorgarliklarining yakuniy nazorati, shug'ullanuvchilarning konditsion va koordinatsion ko'rsatkichlari darajalarini, manyovrli harakatlarni egallaganlik darajalarini aniqlash uchun testlarni qo'llash bilan.

4.Asosiy musobaqalarga tayyorgarlikning barcha davrlari 3 ta bosqichga bo'lingan: birinchisi jismoniy tayyorgarlik (2 xafta); ikkinchisi – maxsus jismoniy tayyorgarlik (2 xafta); uchinchisi – maxsus tayyorgarlik (2 xafta) 1-jadval

Mash'gulotning 1 va 2 xaftasi

1-2-xatfa	Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma	Shanba	Yakshanba

Ertalabki qizib olish mashqi (7:30-8:00)	**Yugurish, URM, boks maktabi, aerobika)**	**Yugurish, URM, boks maktabi, aerobika**	**Yugurish, URM, boks maktabi, aerobika**	**Yugurish, URM, boks maktabi, aerobika**	**Yugurish, URM boks maktabi, aerobika**	**Mustaqil qizish mashqi, aerobika**	Dam olish
Ertalab (11:00-13:00)	1-mashg'ulot (harakatlar, sakrash, URM, aerobika)	2-mashg'ulot (harakatla-nishlar zarba berish bilan), aerobika	1-mashg'ulot (harakatlar, sakrash, URM), aerobika	1 soat davomida o'rta tezlikda kross yugurish	Stol tennis 1,5-2 soat davomida	Kross 1-1,5 soat davomida (8-10km)	Dam olish
Kechqurun (17:00-19:00)	4-mashg'ulot (harakatlar to'p bilan), aerobika	O'yinnli mashg'ulot (futbol), aerobika	6-mashg'ulot Toshlar (tezor kuchni rivojlantiruv-chi mashqlar aerobika	Sauna 1-1,5 soat	UJT (aylanma mashg'ulot: shtanga, gantellar va h.k.) aerobika	5-mashg'ulot basseynda zarba berish texnikasini takolmillash-tirish	Dam olish
Ertalab (11:00-13:00)	Kross (5-6 km) yugurish paytida zarbalar berish, boks maktabi	6-mashg'ulot turli xil toshlar bilan tezkor kuch, aerobika	Juftliklarda MTTM (har xil raqiblar modeli bilan ishlash) 7-mashg'ulot	4-mashg'ulot To'p bilan turli xil mashqlar bajarish	Kross 1-1,5 soat davomida (8-10 km masofaga)	5-mashg'ulot basseynda zarba berish texnikasini takolmillash-tirish	Dam olish
Kechqurun (17:00-19:00)	Juftliklarda MTTM (har xil raqiblar modeli bilan ishlash) 7-mashg'ulot	9-mashg'ulot Snaryadlarda MTTM, vazifani modellashti-rish bilan ishlash (1 soat)	2-mashg'ulot zarba berish texnikasini takomillash-tirish	O'yinli trenirovka (basketbol, regbi) 1,5 soat, aerobika	Snaryadlarda MMTTM vazifani modellashti-rish bilan ishlash (1,5 soat) 9-mashg'ulot	Sauna 1-1,5 soat	Dam olish

Taklif etilgan metodika bo'yicha bokschilarni tayyorlash paytida asosiy e'tibor "boks maktabi" mashqlariga, aynan, hujum yoki ximoya uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida ring bo'ylab to'g'ri va eng samarali harakatlanishlariga qaratildi. Bu, qadam bosishlarni, chidamlilikni, qo'llar, oyoqlar va tananing kuch koordinatsiyasini talab qiladi.

Mashqlar tarkibiga quyidagilar kiradi: oldinga sakrashlar, chapga, o'ngga, oldinga-orqaga bir-birini kesib o'tgan holda bilan oyoqlarda harakatlanishlar: 90, 180, 360 gradusga burilishlar bilan yuqoriga sakrashlar bilan hamda berilgan zarba kombinatsiyasini harakatlanishlarning ma'lum bir sikldan keyin murabbiyning buyrug'i bo'yicha bajarish bilan. Bokschilar tomonidan barcha harakatlanishlar oyoqlarga og'irliklarni (1-1,5 kg) boglash bilan bajarildi, bu, oyoqlarning mushaklariga tushadigan yuklamani oshirdi va shu tufayli, harakatlanishlar paytida mushaklarning chidamliligini va ringda manyovr qilish tezligini rivojlantirdi.

O'smir bokschilar o'quv-mashg'uloti jarayonining dastlabki 2 xaftasida, biz tomondan umumiy rivojlanishga yo'nalgan mashqlar qo'llanilgan edi.

Ularning tarkibiga, biz tomondan ring bo'ylab harakatlanishlar uchun tanlangan mashg'ulotlar modeli - № 1, 2, 3, 4,5, 6, kiritildi.

Musoboqa oldi bosqichining dastlabki, 6 xaftalik bo'laklariga ring bo'ylab harakatlanishni yanada samaraliroq takomillashtirish uchun tajriba guruhi bokschilariga har bir trenirovkaning qizib olish qismiga, tezkor sur'atda bajariladigan aerob harakterdagi mashqlar taklif qilindi.

Musobaqa oldi bosqichining keyingi 2 xaftalik bo'lagiga tajriba guruhi bokschilariga ixtisoslashgan harakterga ega bo'lgan mashqlar taklif qilindi, unda № 2, 4, 5, 7, 9 – mashqlarning modeli qo'llanildi.

Tayyorgarlikning yakuniy 2 xaftalik bosqichida № 5, 7, 9, mashg'ulotlarning modellari qo'llanildi. Gap bohsqariladigan o'quv-mashg'ulot jarayoni to'g'risida borayotganligi tufayli, uni modellashtirish vs strukturasini aniqlash masalasini bilishimiz talab qilindi.V.N. Platonovning aytishicha, modellashtirilayotgan mezosiklning strukturasi quyidagicha tavsiflanishi mumkin. sport mashg'ulotining har xil tomonlarini o'zaro bog'liqligi nisbati bilan (UJT, MJT, texnik-taktik harakatlar)

Mashg'ulot va musobaqa yuklamalarining parametrlari bilan (ishning hajmi va jadalligi, ishning summar hajmidagi musobaqa musobaqa yuklamalarining ulushi)

Pedagogik tajriba tugagandan keying nazorat va tajriba guruhlari o'smir bokschilarining jismoniy tayyorgarligi

Tavsiflanuvchi jismoniy sifat	Harakat testining nomi	Tajriba guruhi n=15	Nazorat guruhi n=15	Har bir ajratma-dagi o'. a. q. ning farqlari (%)	t student me'zoni	Farqlarning ishonchliligi P
Kuch sifatini oshirish uchun berilgan mashq	**Yakkacho'pda tortilish**	**18,4±1,5**	**16,2±1,1**	**10,5**	**4,2**	**<0,001**
Kuch sifatini oshirish uchun berilgan mashq	O'z vazniga teng shtangani dast ko'tarish (marta)	10,2±0,9	8,4±0,7	11,6	2,4	<0,05
Tezkorlik sifatini oshirish uchun berilgan mashq	Yugurish 100 metrga	13,1±0,2	13,1±0,2	0,0	0,3	>0,05
Portlovchi kuch sifatini oshirish uchun berilgan mashq	Joyidan turib uzunlikka sakrash	152,3±6,5	146,4±0,8	3,6	2,8	<0,05
Chidamlilik sifatini oshirish uchun berilgan mashq	Yugurish 3000 metrga	673±13,4	698±10,6	2,3	4,3	<0,05
Pedagogik tajriba tugagandan keying tajriba guruhi jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichini nazorat guruhi bilan taqqoslaganda o'rtacha statistik o'sishi (%)			5,8			

Yakuniy testlash, yakkacho'pda tortilishda tajriba guruhi o'smir bokschilar, o'zlarining nazorat guruhidagi tengdoshlarinikiga nisbatan eng yaxshi ko'rsatkichlariga ega bo'lishdi.Bunda, farqlar statistik ishonchli bo'ldi. Bu, tajriba guruhida texnik tayyorgarlik parallel ravishda, katta miqdordagi kuch mashqlari bajarilganligi bilan bog'liq.

O'z vazniga teng shtangani dast ko'tarish, tajriba guruhi o'smir bokschilari ushbu mashqni o'rtacha hisobda 10 marta, nazorat guruhi bokschilari esa 8 marta bajarganligi ko'rsatdi. Bu, yelkani rostlovchi mushaklarning ancha kuchsiz rivojlanganligini ko'rsatdi, taxmin qilinadiki, bunday holat qo'llar bilan to'g'ridan beriladigan zarbalarning kuchiga ta'sir qiladi. Styudent mezoni 2,2 ni tashkil qildi, bu shtangani yotgan holatda dast ko'tarishda ikkala guruhning natijalaridagi farqlarning statistik ishonchliligini ko'rsatdi.

100 metrga yugurish ko'rsatkichlarida ishonchli farqlar aniqlanmadi. Bu, harakatlarning tezkorligini trenirovka qilish qiyinligi bilan bog'liq va sportchi organizmining genetik xususiyatlari bilan ko'proq belgilanadi. Masalan, tajriba va nazorat guruhlarida o'rtacha natija 13,1 soniyani tashkil qildi. Bizning nazarimizda 15-16 yoshda harakatlarning tezkorligini rivojlanishining ancha yuqori ko'rsatkichi.

Joyidan turib uzunlikka sakrash oyoqlar mushaklarining portlovchi kuchini tavsiflaydi. Ushbu testda, tajriba guruhining o'smir bokschilari nazorat guruhidagi tengdoshlaridan o'zib ketganini ko'rishimiz mumkin. O'rtacha olganda, tajriba guruhining bokschilarning ushbu sakrashni 152 sm ga bajardi, nazorat guruhidagi bokschilar – 146 sm, student me'zoni ikkala guruh bokschilari ko'rsatkichlaridagi farqlarning ishonchliligini ko'rsatdi.

Tajriba guruhining jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari o'rtacha statistik o'sishi, nazorat guruhiniki bilan pedagogik tajriba yakunida taqqoslaganida 5,8% tashkil qildi.

XULOSALAR

